


BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

5/2025

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

5/2025

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal

2025, № 5, may

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

MUNDARIJA * СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS**

ADABIYOTSHUNOSLIK * LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ**

Аминова М.Д., Хусанова С.Х.	Вечные темы в поэзии А.А.Ахматовой разных периодов творчества	4
Shahobova S.B., Khallieva G.I.	Similarities and differences in the works of Abdullah Qahhor and O. Henry	10
G'aniyeva O.X., Ashurova N.A.	"MR. Potter" romanida bilvosita xarakterlash va uning badiiy-estetik vazifasi	14
Atamurodova F.T.	Origin of the novel in european literature	19
Barotova M.B.	Sinkretizmning adabiy tamoyil sifatida qo'llanishi	23
Berdiyeva S.U.	"Shum bola" asarida milliy yumorning ifodalanishi va uning ingliz tilidagi tarjimada adekvatligi	27
Ilkhomova U.Dj.	The influence of feminist literature on teachers' portraits: a comparative analysis of "The color purple" and "Diary of the freedom writers"	31
Jurayeva I.A., Po'lotova G.M.	Sofoklning "Shoh Edip" asarida delakunizatsiya	35
Ochilov U.S.	Magical realism and memory in Salman Rushdie's «Victory city»	39
Qudratova S.O.	The concept of loneliness in "Why i live at the p.o." by Eudora Welty	43
Raxmatova S.O., Ro'zigul S.Q.	O'tkir Hoshimov asarlarining rus tiliga tarjimasida milliy mentalitet va madaniy realiyalarning ifoda topishi	47
Sadikova D.N.	Den Braunning "Farishtalar va iblislar"("Angels and demons") asaridagi ramzlarning intertekstual tahlili	51
Ochilov U.S.	Fear and imagination in american children's and horror literature	56
Safarova Z.K., Isroilov D.S.	Amirqul Po'ltan asarlarida milliy g'oyalarning ifodalanishi	64
Saidova Sh.Sh., Kilicheva M.R.,	The representation of historical lexicon in the english translation of "Yulduzli tunlar" (starry nights)	68
Salimova H.H.	The representation of the mother figure and national identity in Abdulla Qodiriy's novels	72
Sharipova D.Sh.	Specific characteristics and aspects of symbols in literature	78
Sharipova M.B.	"Qiz tanlash" va "Unashtirish" marosimining "Alpomish" dostonidagi badiiy talqini	85
Temirova Dj.Kh.	Typological convergence of plot-image systems in russian and uzbek children's game folklore	89
Xalimova N.N.	Sharq va g'arb romanchiligi: O'rta Osiyo va Yevropa adabiyotida tasvir va talqin	99
Yuldosheva M.A.	XX asr 30 -yillar o'zbek matbuotining asosiy tamoyillari	103
Адилова Д.К.	Отличительные особенности женских образов в русской узбекской литературе	107
Amanullaeva K.M., Alizhonova O.A.	Concept and conceptosphere problems and artistic concept in the text structure	112

Боймуродов Б.Қ.	Таҳлили ғоявии ашъори зулфия	116
Кенджаева Г.В., Убайдуллаева Ф.Е.	Самопожертвование как главная тема в рассказах О. Генри	121
Норқўчқоров Ф.Ш.	Ринди Ҳофиз ва аҳамияти он	124
Темирова Д.Қ.	Природа и символизм: как харди использует природный мир в тесс из рода Д’Эрбервиллей»	129
Боймуродов Б.Қ.	Инъикоси таърих дар ашъори асад Гулзодаи Бухорой	133
Холматов М.О.	Танқиди руҳониёни давр дар ғазалиёти Ҳофизии Шерозӣ	137
Чориёрова Н.Т., Хусанова С.Х.	Художественный мир Марины Цветаевой	142
Файзуллаева Р.А.	Муҳаммад Расул Мирзо девонининг жанрий таркиби	148
Холматов М.О.	Корбурди санъати муболиға дар достони “Рустам ва Сўҳроб”-и Абулқосими Фирдавсӣ	153
Avazova L.B.	Harold Lambning "Babur the tiger" va Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asarlaridagi tarixiy va badiiy o‘xshashliklar	158
Bozorova U.Q.	A.S. Pushkin asarlaridagi xorijiy kiritmalar tavsifi	163
Гаффарова О.Б.	Гендерная тема в современной женской драматургии (Я. Пулинович О.Мухина и др.)	167
Рахимова М.Ш.	Тема «маленького человека» в произведении Л. Улицкой «Народ избранный»	171
MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK *** TEXTOLOGY AND LITERARY SOURCE STUDY *** ТЕКСТОЛОГИЯ И ЛИТЕРАТУРНОЕ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ		
Kalandarova F.A.	“Daxmai shohon”ning nusxalari va ularning o‘rganilishi	175
JURNALISTIKA *** JOURNALISM*** ЖУРНАЛИСТИКА		
Marziyaev J.K.	Mediada ekologik mavzularni yoritishning nazariy-metodologik tahlili	181
Askarova M.G‘.	Mahalliy “Bolajon” va “Aqlvoy” telekanallaridan efirga uzatilgan multfilmlarda ijtimoiy muhandislikning o‘rni	185
NAVOIY GULSHANI		
Amonova Z.Q., Asxatova D.A.	Aytib malak ichra darsi himmat	189
Olimova D.K.	Fayz shahristoni sayrig‘a topar darvoza ruh	192
TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ		
Shukurillayev Y.A.	Amir Nasrulloxon davridagi “Buxoro davlatining harbiy nizomi” – amirlikning harbiy tarixiga oid muhim manba	194
Beshimov M.K.	Munzim ijodida adolat va ma’rifatparvarlik g’oyalari	200
Bo’stonova Z.B.	Buxoro vohasi xorijiy sayyohlar nigohida	204
Buriyev Z.T.	XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida turkiston o‘lkasining boshqaruv siyosati va uning mohiyati	209

Narziyeva M.A.	Turkistonda faoliyat yuritgan qishloq xo'jalik maktablari tarixidan (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)	214
Orunbayev A.	1908-yilgi saylovlar doirasida ittihad va taraqqiyot jamiyatining siyosiy dasturi	219
Shukurillayev Y.A.	Buxoro amirligi qo'shbegisi kanselyariyasi fondi hujjatlari – amirlikning qo'shin va harbiy ishiga oid muhim manba	227
Rajabov O.I.	Bahovuddin Naqshbandning ma'naviy-ilmiy merosi xorijiy tadqiqotchilar talqinida	234
Rizayev B.N.	The soviet collectivization project	238
Sayfullayev B.D.	O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi madaniy munosabatlar: adabiy aloqalar misolida	244
Sharopov D.R.	XVIII – XIX asrlarda Buxoro amirligi savdo majmualarining xalqaro tijoratdagi o'rni	248
Asadov M.O'.	Nogironligi bo'lgan kishilar orasida jismoniy madaniyat va sportning rivojlanish tarixi	252
Эргашев Ж.Ю., Тоҳирова М.Т.	Қорақўл териси савдоси ва унинг минтақавий ҳамда халқаро бозорлардаги ўрни	256
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
Abdurakhimov H.S.	O'zbekiston va Avstriya respublikalari o'rtasidagi diplomatik va iqtisodiy hamkorlikning huquqiy asoslari o'rnatilishi	262
Sotvoldiyev J.S.	Markaziy Osiyo xavfsizligini ta'minlashda O'zbekistonning konstruktiv diplomatik yondashuvi	268
Давлатова С.Т.	Ўзбекистон ва Корея: миллатлараро муносабатларда янги стратегик кадам	272
Мехмет Э.Т., Алиева Т.	Туризм как фактор «мягкой силы» во внешней политике: на примере Турции и Узбекистана	278
Найимов О.М.	Кўп томонлама дипломатиянинг нуфузли минбари: парламентлараро иттифок ва сиёсий мулоқот	284
IQTISOD *** ECONOMY *** ЭКОНОМИКА		
Niyozov A.Q.	Inflyatsiya darajasi eng yuqori bo'lgan mamlakatlar — tarix va bugun	289
PEDAGOGIKA *** PEDAGOGY *** ПЕДАГОГИКА		
Nazarov S.Sh.	A comparative study of the structural-semantic features of english and uzbek word combinations	294
SAN'AT *** ART *** ИСКУССТВОВЕДЕНИЕ		
To'ychiyeva S.S.	Boqiy qadriyatlar beshigi	298

XVIII – XIX ASRLARDA BUXORO AMIRLIGI SAVDO MAJMUALARINING XALQARO TIJORATDAGI O'RNI

*Sharopov Dilshod Ravshan o'g'li,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro amirligidagi savdo majmualarining iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi o'rni atroflicha tahlil qilingan. Savdo majmualari savdo – sotiq aloqalarini rivojlantirish va tashqi va ichki savdo jarayonlarini muvofiqlashtirishda muhim ahamiyat kasb etgan. XVIII–XIX asrlarda Buxorodagi karvonsaroylar soni sezilarli darajada ortib, ular alohida ixtisoslashgan savdo markazlariga aylangan. Rossiya va boshqa davlatlar bilan savdo aloqalarining jadallashishi natijasida karvonsaroylarning ahamiyati yanada ortgan. Maqolada tarixiy manbalar va tadqiqotlarga asoslanib, Buxorodagi eng yirik karvonsaroylarning funksional xususiyatlari va ularning iqtisodiy tizimdagi o'rni yoritilgan. Mazkur tadqiqot XVIII – XIX asrlarda Buxoro amirligining savdo infrastrukturasini o'rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, savdo – sotiq, karvonsaroylar, savdo aloqalari, iqtisodiy tizim, tashqi savdo, hunarmandchilik, tarixiy manbalar.

МЕСТО ТОРГОВЫХ КОМПЛЕКСОВ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА В МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОРГОВЛЕ В XVIII–XIX ВВ.

Аннотация. В статье дается подробный анализ роли торговых центров в экономической и общественной жизни Бухарского эмирата. Торговые центры стали играть важную роль в развитии торговых отношений и координации процессов внешней и внутренней торговли. В XVIII–XIX веках число караван-сараев в Бухаре значительно возросло, и они стали специализированными торговыми центрами. Значение караван-сараев еще больше возросло в связи с активизацией торговых связей с Россией и другими странами. В статье на основе исторических источников и исследований освещаются функциональные особенности крупнейших караван-сараев Бухары и их роль в экономической системе. Данное исследование имеет важное научное значение в изучении торговой инфраструктуры Бухарского эмирата XVIII–XIX вв.

Ключевые слова: Бухарский эмират, торговля, караван-сарай, торговые связи, экономическая система, внешняя торговля, ремесла, исторические источники.

THE ROLE OF TRADE COMPLEXES OF THE BUKHARA EMIRATE IN INTERNATIONAL TRADE IN THE 18TH – 19TH CENTURIES

Abstract. This article comprehensively analyzes the role of trade complexes in the Bukhara Emirate in economic and social life. Trade complexes played an important role in the development of trade relations and the coordination of external and internal trade processes. In the 18th – 19th centuries, the number of caravanserais in Bukhara increased significantly, and they became separate specialized trade centers. As a result of the intensification of trade relations with Russia and other countries, the importance of caravanserais increased even more. The article, based on historical sources and research, highlights the functional features of the largest caravanserais in Bukhara and their role in the economic system. This study is of significant scientific importance in studying the trade infrastructure of the Bukhara Emirate in the 18th – 19th centuries.

Keywords: Bukhara Emirate, trade, caravanserais, trade relations, economic system, foreign trade, crafts, historical sources.

Buxoroda savdo majmualarining ahamiyati 248arapl iqtisodiy hayotining turli jabhalarida namoyon bo'lgan. Ular mintaqaviy va xalqaro savdo jarayonlarini tartibga solish, savdogarlarga qulaylik yaratish va mahsulotlarni saqlash uchun mo'ljallangan maxsus inshootlar sifatida faoliyat yuritgan. Shuningdek, ushbu savdo maskanlari davlat tomonidan soliqlar yig'ish, iqtisodiy boshqaruvni samarali yo'lga qo'yish va tijorat munosabatlarini mustahkamlashda ham muhim o'rin tutgan. Karvonsaroylar shuningdek, hunarmandchilik markazlari va turli xizmat ko'rsatish muassasalarining shakllanishiga ham zamin yaratgan.

Buxoro shahri Markaziy Osiyoning eng qadimiy va muhim savdo markazlaridan biri bo'lib, asrlar davomida xalqaro savdo yo'llari chorrahasi sifatida rivojlanib kelgan. Ayniqsa, Buyuk Ipak yo'li davrida Buxoro mintaqadagi eng yirik iqtisodiy va madaniy markazlardan biri sifatida shakllangan. Savdo

aloqalarining rivojlanishi va savdogarlar uchun qulay infratuzilmaning yaratilishi bu 249arapl iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o'ynagan. Bu jarayonda karvonsaroilar alohida ahamiyat kasb etib, ular nafaqat savdogarlar va sayohatchilar uchun vaqtincha turar-joy, balki savdo va moliyaviy aylanmalar markazi vazifasini ham bajargan.

Buxoro amirligi qo'shni xonliklar va davlatlar bilan faol tashqi savdo aloqalarini olib 249arapl. Savdo munosabatlarining rivojlanishi va jadallashuvi karvonsaroilarning ahamiyatini oshirib, karvon yo'llarining xavfsizligini ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratishni talab qilgan. Buxoroning ko'plab karvonsaroilari yagona reja asosida qurilgan[1: 100]. Karvonsaroilarning aksariyati XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida barpo etilgan. Ilmiy tadqiqotlarda XIX asr boshlarida 10 ta karvonsaroy bo'lganligi qayt etilgan bo'lsa, P.I.Demezov o'z esdaliklarida 25 ta karvonsaroyni eslab o'tgan[2: 58]. Demak, karvonsaroilar iqtisodiy munosabatlarining asosi sifatida muhim ahamiyatga ega bo'la boshlagan.

Buxoro qadimiy Ipak yo'lining eng muhim markazlaridan biri bo'lib, asrlar davomida savdo, madaniyat va ilm-fan markazi sifatida tanilgan. Savdo aloqalarining rivojlanishi bilan shaharda karvonsaroilar qurilgan bo'lib, ushbu inshootlar tijoratni qo'llab-quvvatlash, savdogarlarning xavfsizligini ta'minlash hamda ularga qulay yashash sharoitlarini yaratish maqsadida barpo etilgan. XVIII asr o'rtalaridan XX asr boshlarigacha bo'lgan davrda Buxoro amirligi o'zbek davlatchiligi tarixida muhim o'rin egallagan bo'lib, iqtisodiy hayotni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va amirlikdagi savdo aloqalarini mustahkamlash asosiy vazifalardan biri bo'lgan.

E.K.Meyendorf qaydlarida 14 ta karvonsaroy nomi keltirilgan bo'lib, ulardan eng kattasi 1819-yilda qurilgan Abdullajon karvonsaroyni ekanligi ta'kidlanadi[1:100]. N.V.Xanikov Buxoroda XIX asr 40-yillarida 24 toshli va 14 ta yog'ochli karvonsaroy mavjudligi haqida ma'lumot keltirilgan[3:88,89]. Karvonsaroilar sonining ortib borishi va sayyohlar asarlarida eslab o'tilishi savdo ishlarining amirlikda bir qadar rivojlanganligi bilan bog'lasak bo'ladi.

XIX asrning 60-yillarida Buxoroda karvonsaroilarning soni 40 ga yaqin edi. XIX asrning 40-yillari boshida Qarshida 3 ta, 1863-yilda esa 10 ta karvonsaroy faoliyat ko'rsatgan. XIX asrning 60-yillarida Shahrisabzda 7 ta, Kitobda esa 3 ta karvonsaroy bo'lgan[4:19]. Amirlikning turli hududlarida joylashgan karvonsaroilar haqida Y. Skayler, H. Vamberi va E. Meyendorf kabi sayyohlarning asarlarida turli ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu ma'lumotlarning qayd etilishi Buxoro amirligining iqtisodiy salohiyatini hamda karvonsaroilarning amirlik ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rnini aniqlashda muhim ilmiy manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

Yirik shaharlarda joylashgan karvonsaroilar nafaqat savdogarlar uchun vaqtincha yashash maskani, balki ulgurji savdo jarayonlari olib boriladigan hamda zarur soliqlar yig'iladigan iqtisodiy markaz sifatida ham xizmat qilgan. Shuningdek, ayrim karvonsaroilarda hunarmandchilik ustaxonalari joylashib, ular savdo-sotiq bilan bog'liq ishlab chiqarish faoliyatini ham amalga oshirgan. Karvonsaroilar bu keng ko'lamli faoliyati sababli katta daromad 249arapl bo'lgan[5:84]. Karvonsaroilardagi hujralarda, odatda, 10 dan 15 nafargacha yo'lovchi istiqomat qilgan. Biroq, karvonsaroilardagi ijara haqi va uning belgilanish tartibi haqida manbalarda yetarlicha ma'lumot uchramaydi. E.K.Meyendorf asarida XIX asr boshlarida karvonsaroilarda ijara haqi 16 rubl miqdorida bo'lganligi qayd etilgan[1:100]. Karvonsaroilarning aksariyati xayriya ishlari uchun vasiyat qilingan mablag'lar yoki vaqflar hisobidan qurilganligi sababli, ulardan tushgan daromad madrasalar yoki mullalar, masjid imomlariga tegishli bo'lgan.

XIX asr o'rtalari va uchinchi choragida Buxoro amirligi iqtisodiyotida hunarmandchilik korxonalari muhim rol o'ynagan. Bu davrda poytaxt Buxoro hamda amirlikning Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Xo'jand, Jizzax, Karmana, G'ijduvon va boshqa yirik shaharlarida mohir hunarmandlar yuzga yaqin turli kasb-hunar bilan shug'ullanib, sifatli va nafis buyumlar ishlab chiqargan. Xususan, to'quvchilar tayyorlagan turli matolar, zargarlarning tilla va kumush taqinchoqlari, Buxoro zardo'zlarining zar chopon, xalat, do'ppi, ro'mol va boshqa kiyim-kechaklarni zar ip bilan mohirona tikkanlari, kandakorlar va miskarlarning buyumlari, yog'och va ganch o'ymakorligi namunalari, kulollar va duradgorlar, temirchilar va etikdo'zlar tayyorlagan mahsulotlar nafaqat ichki bozorda, balki ko'plab xorijiy davlatlarda ham shuhrat qozongan.

N.Xanikov XIX asrning 40-50-yillarida Buxoro va Xiva o'rtasidagi savdo aloqalari ancha sust bo'lib, amirlik va xonlik o'rtasida yiliga 1000–1500 tuyada yuklar tashilganini ta'kidlaydi. Xivalik savdogarlar Buxorodan Nil bo'yo'gi va ko'k choy, hind hunarmandlari tomonidan to'qilgan guldor matolar 249arap'yoqlarni xarid qilishgan[6:86]. Savdo ishlari yakunlangunga qadar karvon vakillari karvonsaroilarda tunashgan.

Buxoroda Chorsu (chorraha) nomi bilan mashhur beshta yopiq bozor mavjud. Bu Chorsui Kalon (katta bozor), Chorsui Zargaron (kumush va oltin buyumlar sotuvchilari), Chorsui Sarrafon (pul almashtiruvchilar), Chorsui Berinj (guruch) va tuyalar uchun egarlar ishlab chiqariladigan Tukumdo'zi kabilar mavjud. Ushbu yirik bozorlarning har birida kichik bozorlar ham bor. Shuningdek, tim deb nomlanuvchi boshqa ikkita yopiq

bozor ham mavjud. Birinchi timda Buxoroda ishlab chiqarilgan adras, ro'molcha va poyabzallar, ayollar poyabzali hamda turli ipak matolar sotiladi. Ikkinchisi esa Timi Safed (oq bozor) unda faqat rus va ingliz matolari sotiladi. Shaharning barcha bozorlarini ro'yxatga olish juda uzoq vaqt talab etadi. Biz o'zimiz, bu katta bozorlardan tashqari, har bir chorrahada Seri Bazar nomi bilan mashhur bo'lgan kichik bozorlar borligini ko'ramiz. [1:100]

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Buxoro amirligining xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarida Rossiya yetakchi o'rin egallagan va asosiy savdo hamkorlaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etgan. Buxoro amirligining tashqi savdo aloqalarida Buxoro, Qarshi va Samarqand shaharlari asosiy tijorat markazlari sifatida muhim rol o'ynagan. Ushbu shaharlardagi bozor va karvonsaroylar Rossiyadan keltirilgan mahsulotlarni katta miqdorda sotib olish imkoniyatini ta'minlagan. Bu davrda har yili Rossiyadan Buxoroga 25-30 ming tuya orqali turli xil savdo mollari yetkazib kelingani qayd etilgan[7:33]. Fikrimizcha, o'ziga yaqin bo'lgan Xiva xonligiga nisbatan 20 baravardan ortiqroq tuyalarda savdo mollarining keltirilganligi karvon yo'llarida xavfsizlik ta'minlanganligi va karvonsaroylarda katta hajmdagi yukni saqlash imkoniyati bilan bog'liq. Buxoroning ko'plab karvonsaroylari yagona reja asosida qurilgan. Ular katta kvadrat shakldagi ikki qavatli binolardir, ularning tashqi devorlarida shaharning deyarli barcha binolaridagi kabi derazalar yo'q. Birinchi qavatda eshiklari hovliga ochiladigan tor chuqur omborxonalar joylashgan; ikkinchi qavatda savdogarlar, hunarmandlar, hindlar, buxoroliklar yoki tatarlar tashrif buyurishadi. Omborxonalarga, shuningdek, ikkinchi qavatdagi xonalarga yorug'lik eshik orqali yoki eshik ustiga o'yilgan kichik derazalar orqali kiradi. P. I. Demezov o'zining ("Записки о Бухарском ханстве") esdaligida Buxorodagi mavjud karvonsaroylarni 25 ta ekanligini ta'kidlagan bo'lsada, 23 ta karvonsaroy haqida ma'lumotlarni keltirgan. Bu karvonsaroylar aholisi har qanday o'yin-kulgilar taqiqlangan va mirshablar tomonidan kaltaklanish xavfisiz o'ynash, kulish, chekish mumkin bo'lmagan shaharda juda qimmatli bo'lib ko'rinadigan ba'zi imtiyozlardan foydalanadi. Hindlar, afg'onlar bir so'z bilan aytganda, barcha xorijliklar karvonsaroylarda chekishadi, lekin buxoroliklar bu yerda ham zavq olishga jur'at etmaydilar. Ular o'z vatandoshlari oldida juda ko'p 250araple elliklarga qaraganda ko'proq ehtiyot bo'lishadi. Lekin bu o'zbek zodagonlari va ularning xizmatidagi odamlarga taalluqli emas. Mirshablar ularning o'z uylarida sodir bo'layotgan narsalarga aralashishga jur'at eta olmaydi. Buxoroda xorijliklarning e'tiborini, albatta, ko'plab masjidlar tortadi. Eski masjidlar qurilishi bilan ham diqqatga sazovordir. Butun shaharda faqat uchta katta masjid bor, u yerda juma kunlari umumiy namozlar o'qiladi. Birinchisi, Kalon masjidi – Mir Arab minorasi yaqinida joylashgan va qizil Arslon xon tomonidan qurilgan. Ikkinchisi Gavkushon (qassoblar) masjidi, uchinchisi – saroyga juda yaqin. P.I.Demezov esdaligida keltirilishicha "bulardan tashqari, yana ikkita jome masjidi bor: Bozori Alar (tutatqi bozori) yaqinida joylashgan Mag'oki va Misgaron (qalay bozori) katta bozorlari yaqinida joylashgan masjid".

Buxoro karvonsaroylari qurilishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, an'anaviy Sharq me'morchiligiga xos uslubda bunyod etilgan bo'lib, quyidagi xususiyatlarni o'zida jamlagan:

- Mustahkam devorlar va baland darvozalar;
- Ichki hovli va favvoralar;
- Haroratni saqlash uchun qalin g'isht devorlar;
- Savdogarlar uchun alohida xonalar va omborlar

XIX asr 80-yillarida bir qator katta-kichik bozorlar bo'lib, barchasining atrofida karvonsaroylar mavjud bo'lgan. Ilmiy adabiyotlarda tashqi savdoda katta ahamiyatga ega bo'lgan karvonsaroylar haqida ham ma'lumotlar uchraydi. Xususan, Rossiyadan kelayotgan karvonning Buxorodan 50-60 verst masofada joylashgan "Nazarboy gumbaz" karvonsaroyiga joylashganligini P.Neboslinn yozib qoldiradi[8:2-3]. Qo'qon xonligi bilan kechgan savdo munosabatlarida ham o'zining alohida karvonsaroyi bo'lgan. P.I.Demezov Qo'qondan keltirilgan 250arap Buxoroning "Yangi Saroyi Barra" karvonsaroyiga yetkazilib, shu yerdan Buxoro va uning boshqa shaharlariga taqsimlanganligini ta'kidlagan[9:170-173]. Bundan xulosa qilish mumkinki, har bir hudud Buxoroda o'zining ishonchli karvonsaroyiga ega bo'lgan.

Amirlik hududida karvonsaroylar sonining ortib borishi savdo munosabatlarida katta 250arap ayirboshlash bilan chambarchas bog'liqdir. XX asr boshlariga kelib, Buxoroda 60 dan ortiq karvonsaroy mavjud bo'lgan[10:86]. Savdo hajmining kengligi omborlar va tovarlarni saqlash uchun mo'ljallangan joylar orqali namoyon bo'ladi. Karvonsaroylar ham, savdo rastalari singari, ma'lum bir 250araple'yicha ixtisoslashgan.

Xulosa. Buxoro qadimiy Ipak yo'lining muhim savdo markazi bo'lib, karvonsaroylar iqtisodiy va ijtimoiy hayotda katta ahamiyat kasb etgan. XVIII–XIX asrlarda savdo munosabatlarining rivojlanishi bilan Buxoro amirligi hududida karvonsaroylar soni sezilarli darajada ortdi. Karvonsaroylar nafaqat savdogarlar uchun qulay yashash va yuk saqlash joyi, balki iqtisodiy markaz sifatida ham xizmat qilgan. XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya Buxoroning asosiy savdo hamkoriga aylangan bo'lib, yillik savdo hajmi o'sgan. Buxorodagi karvonsaroylar mustahkam devorlar, ichki hovlilar va omborlarga ega bo'lib, har biri ma'lum

HISTORY

savdo yoʻnalishiga ixtisoslashgan. XX asr boshlariga kelib, shaharda 60 dan ortiq karvonsaroy mavjud boʻlib, ular amirlikning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashda muhim rol oʻynagan.

ADABIYOTLAR:

1. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. –Москва.: «Наука», 1975. – 184 с.
2. Записки о Бухарском ханстве (Отчёты П.И.Демезона и Виткевича). –Москва.: «Наука», 1983. – 149 с.
3. Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. –СПб., 1843. – 282 с.
4. Хасанов А.О. Карвонсаройлар меъморчилигини ривожлантириши масалалари // *Meʼmorchilik va qurilish muammolari*. 2019, №2. –В.17-20.
5. Сагдуллаев А. Мавлонов Ў. Маҳкамова Д. Ўрта Осиёда ўрта асрлар савдо-сотиқ тизими. Академия Тошкент. 2002. – 108 б.
6. Очилдиев, Ф. (2022). XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Бухоро амирлигининг қўшни хонликлар билан савдо алоқалари. *Jamiyat Va Innovatsiyalar*, 3(3), 18–23. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss3-pp18-23>.
7. Khaydarov, Z. B. . (2023). Trade relations of the emirate of 251araple with 251arapl in the 60s-70s of the 19th century. *Oriental Journal of History, Politics and Law*, 3(06), 32–39. <https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-03-06-05>
8. Небольсин П.И. Очерки торговли России с странами Средней Азии, Хивой, Бухарой и Коканом (со стороны Оренбургской линии) –Санкт-Петербург, 1856. – 375 с.
9. Мадрахимов А. Қўқон хонлигининг таиқи савдо алоқаларида Бухоро шаҳрининг тутган ўрни // “Бухоронинг жаҳон маданиятидаги ўрни” мавзусидаги Республика миқёсидаги онлайн илмий-амалий анжуман, 2020 йил 27 апрел. –Бухоро. –Б.170-173.